IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

XARAJAT VA DAROMAD KO'RSATKICHLARINI YAIM, AHOLI SONI VA HUDUD MAYDONIGA NISBATAN NORMALLASHTIRISH: METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL

Xursandov Sherkonbek Sherzod o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi
sherkonbekxursandov7@gmail.com

Utanov Bunyod Kuvandikovich
Ilmiy rahbar:
"Iqtisodiy statistika" kafedrasi professori, (PhD)
bunyod1285@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22161239

Annotatsiya

Fiskal ko'rsatkichlarning mutlaq qiymatlari o'z-o'zicha iqtisodiy mazmunga ega emas — ular faqat muayyan bazaga nisbatan olinganda qiyoslanadigan axborotga aylanadi. Mazkur maqolada davlat byudjeti daromad va xarajatlarini normallashtirishning uchta asosiy bazisi — yalpi ichki mahsulot, aholi soni va hudud maydoni — ning metodologik asoslari, qo'llanish chegaralari hamda tanlangan maxraj natijaga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining 2025–2026-yillardagi byudjet va statistika ma'lumotlari asosida bir xil mutlaq ko'rsatkichning turli maxrajlarda qanchalik farqli talqin berishi empirik ravishda ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari maxraj tanlovi texnik emas, balki mazmunan tahliliy qaror ekanini, maxraj qayta ko'rib chiqilganda esa hosila ko'rsatkichlarning avtomatik ravishda o'zgarishini tasdiqlaydi. Maqolada normallashtirilgan ko'rsatkichlarni taqdim etishda majburiy metodologik shaffoflik talablari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar:

fiskal ko'rsatkichlar, normallashtirish, yalpi ichki mahsulot, jon boshiga xarajat, hududiy zichlik, maxraj samarasi, byudjet tahlili, milliy hisoblar tizimi (SNA 2008), GFSM 2014, davlat moliyasi statistikasi, qiyosiy tahlil, hududiy tafovutlar, aholini ro'yxatga olish.

Kirish: Davlat moliyasi statistikasining amaliy qiymati ko'p jihatdan mutlaq ko'rsatkichlarni qiyoslanadigan nisbiy ko'rsatkichlarga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi. «Byudjet xarajatlari 402,4 trillion so'm» degan ma'lumot o'z-o'zicha na katta, na kichik — u faqat biror bazaga bo'lingandagina baholanadi.[1]

Xalqaro amaliyotda bunday bazalar sifatida asosan uchta ko'rsatkich qo'llaniladi. Birinchisi — yalpi ichki mahsulot: davlatning iqtisodiyotdagi ulushini, fiskal yukni va qarz barqarorligini o'lchaydi. Ikkinchisi — aholi soni: byudjet resurslarining fuqaroga yetib borish darajasini ko'rsatadi. Uchinchisi — hudud maydoni: infratuzilma, transport va ekologik xarajatlarning fazoviy zichligini baholashda ishlatiladi. Mazkur uch bazis metodologik jihatdan teng emas. YaIMga nisbatan normallashtirish Xalqaro Valyuta Jamg'armasining davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanmasida (GFSM 2014) standart taqdimot shakli sifatida belgilangan.[2] Aholi soniga normallashtirish milliy hisoblar tizimida (SNA 2008) turmush darajasi ko'rsatkichlari uchun

[1] 2026-yil uchun Davlat byudjeti xarajatlarining prognoz ko'rsatkichi. Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, «Fuqarolar uchun byudjet», 2026-yil.
[2] IMF. *Government Finance Statistics Manual 2014*, 4-bob. Fiskal ko'rsatkichlarni YaIMga nisbatan foizda taqdim etish standart shakl sifatida belgilangan.

tavsiya etilgan.[3] Hudud maydoniga normallashtirish esa xalqaro standartlarda alohida tavsiya sifatida qayd etilmagan — u tarmoq tahlillarida yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu maqolaning maqsadi — normallashtirish bazasi tanlovining tahlil natijasiga ta'sirini O'zbekiston ma'lumotlari misolida miqdoriy baholash va bunday hisob-kitoblarni taqdim etishda zarur bo'lgan metodologik talablarni shakllantirish.

Tadqiqot metodologiyasi va axborot bazasi

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va hisob-kitob usullaridan foydalanilgan. Axborot bazasini «2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonun[4], Iqtisodiyot va moliya vazirligining byudjet parametrlari bo‘yicha rasmiy sharhlari, Milliy statistika qo‘mitasining demografik ma’lumotlari hamda 2026-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari tashkil etadi.Metodologik asos sifatida SNA 2008, IMF GFSM 2014 hamda Yevrostatning davlat moliyasi ko‘rsatkichlarini taqdim etish bo‘yicha qoidalari olindi. Hisob-kitoblarda quyidagi asosiy formuladan foydalanildi:

$$\text{Ni} = \frac{X}{D_i}$$

bu yerda X — normallashtirilayotgan mutlaq fiskal ko‘rsatkich, D_i — i-turdagi maxraj (YaIM, aholi soni yoki hudud maydoni), N_i — hosila nisbiy ko‘rsatkich.

Tadqiqotning markaziy gipotezasi shundan iboratki, X o‘zgarmagan holda ham D_i ning tanlovi yoki qayta ko‘rib chiqilishi N_i ni statistik jihatdan sezilarli darajada o‘zgartiradi.

YaIMga nisbatan normallashtirish

YaIMga nisbatan olingan ko'rsatkichlar fiskal tahlilda eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi, chunki ular davlatning iqtisodiyotdagi mavqeini valyuta kursi va inflyatsiyadan mustaqil ravishda o'lchashga imkon beradi.

O'zbekiston misolida bu usulning kuchli tomoni ham, zaifligi ham yaqqol ko'rinadi. 2026-yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti xarajatlari 402,4 trln so'm etib belgilangan bo'lib, bu YaIMning 20,4 foiziga teng deb baholangan. 2025-yilda esa kutilayotgan xarajatlar 388,9 trln so'm yoki YaIMning 22,6 foizini tashkil etgan. Ya'ni mutlaq ifodada xarajatlar 13,5 trln so'mga oshgan, ammo nisbiy ifodada 2,2 foiz bandiga kamaygan. Bu — normallashtirishning eng muhim xossasi: son va nisbat qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanishi mumkin.

Zaiflik esa maxrajning o'zi baholanadigan kattalik ekanida. 2026-yil davomida Iqtisodiyot va moliya vazirligi nominal YaIM prognozini 2 183 trln so'mgacha, ya'ni byudjet qonunida belgilangan darajadan 207 trln so'mga oshirdi. Xarajatlar raqami o'zgarmagan holda, ularning YaIMdagi ulushi 20,4 foizdan 18,4 foizgacha tushadi. Fiskal siyosat hech qanday qaror qabul qilmagan bo'lsa-da, ko'rsatkich «yaxshilangan» ko'rinadi.

Aholi soniga nisbatan normallashtirish

Jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlar byudjetning ijtimoiy yo'naltirilganligini baholashda ajralmas vositadir. Ularning metodologik zaifligi maxrajning aniqligiga bevosita bog'liq bo'lishida namoyon bo'ladi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga joriy statistik hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekistonning doimiy aholisi 38 236 704 kishini tashkil etgan.[5] Biroq shu yilning 15-yanvarida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra bu ko'rsatkich 39 047 321 kishiga teng bo'lib chiqdi — farq 810

[3] *System of National Accounts 2008*, 2 va 20-boblar. Jon boshiga ko'rsatkichlar turmush darajasini xalqaro qiyoslash uchun tavsiya etilgan.

[4] O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O'RQ-1105-son Qonuni.

[5] Milliy statistika qo'mitasi, «Demografik ko'rsatkichlar», 2026-yil 1-yanvar holatiga.

617 kishi yoki 2,1 foizni tashkil etdi. Statistika idorasi bunday tafovut xalqaro amaliyotda odatiy hol ekanini, Qozog'istonda u 1,6 foiz, Rossiyada 1,12 foiz, Kanadada esa 3,15 foizni tashkil etganini qayd etgan.

Bu farqning fiskal tahlilga ta'siri to'g'ridan-to'g'ridir:

Maxraj	Maxraj qiymati	Natija
YaIM (byudjet qonuni bo'yicha)	~1 972 trln so'm	**20,4%**
YaIM (yangilangan prognoz)	2 183 trln so'm	**18,4%**
Aholi (joriy hisob-kitob)	38 236 704 kishi	**10,52 mln so'm/kishi**
Aholi (ro'yxatga olish)	39 047 321 kishi	**10,31 mln so'm/kishi**
Hudud maydoni	448 978 km²	**896 mln so'm/km²**

1-jadval. Bir xil xarajat hajmining turli maxrajlardagi natijalari (2026-yil)

Manba: muallif hisob-kitoblari. Surat barcha hollarda o'zgarmas — 402,4 trln so'm.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bitta va o'zgarmas fiskal ko'rsatkich to'rt xil nisbiy qiymat beradi. Jon boshiga xarajat maxrajni almashtirishning o'ziyoq 218,5 ming so'mga — ya'ni 2,1 foizga — kamayadi. Dinamik qatorlarda bu o'zgarish osongina «xarajatlarning qisqarishi» sifatida noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

Hudud maydoniga nisbatan normallashtirish

Uchinchi bazis eng cheklangan qo'llanish doirasiga ega. Uning mazmuni faqat xarajat obyekti fazoviy tabiatga ega bo'lgan hollarda — avtomobil yo'llari, elektr uzatish tarmoqlari, suv ta'minoti, ekologik monitoring — saqlanib qoladi. Daromad ko'rsatkichlarini maydonga bo'lish esa iqtisodiy mazmundan mahrum, chunki soliq bazasi yer maydoni bilan emas, iqtisodiy faollik bilan bog'liq.

Bu cheklovning ko'lami O'zbekistonning hududiy statistikasida aniq ko'rinadi. Respublika bo'yicha aholi zichligi 1 km²ga o'rtacha 83,2 kishini tashkil etsa, hududlar kesimida bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 6 909,6 kishini, Navoiy viloyatida esa atigi 9,8 kishini tashkil etadi.[6]

Hudud	Zichlik (kishi/km²)	Respublika o'rtachasiga nisbatan
Toshkent shahri	6 909,6	83,0 barobar yuqori
Andijon viloyati	801,3	9,6 barobar yuqori
Respublika o'rtachasi	83,2	1,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12,1	6,9 barobar past
Navoiy viloyati	9,8	8,5 barobar past

1-jadval. Bir xil xarajat hajmining turli maxrajlardagi natijalari (2026-yil)

Chekka qiymatlar orasidagi tafovut 705 barobarni tashkil etadi. Buning amaliy oqibati quyidagicha: shartli ravishda 1 trln so'mlik mablag' ikki hudud o'rtasida taqsimlansa, jon boshiga

[6] Statistika agentligi ma'lumotlari, hududlar kesimida aholi zichligi.

tamoyilida Toshkent shahri Navoiy viloyatidan taxminan 2,7 barobar ko'p mablag' oladi; maydonga nisbatan tamoyilida esa aksincha, Navoiy viloyati poytaxtdan qariyb 370 barobar ko'p mablag' olishi kerak bo'ladi. Bir xil mablag', bir xil ikki hudud — ammo taqsimot yo'nalishi butunlay teskari. Bu maxraj tanlovining texnik emas, siyosiy-iqtisodiy qaror ekanini isbotlaydi.

Natijalar va muhokama

Tahlil quyidagi natijalarni berdi.

Birinchidan, maxrajning qayta baholanishi suratdan mustaqil ravishda hosila ko'rsatkichni o'zgartiradi. 2026-yil misolida YaIM prognozining qayta ko'rilishi xarajatlar ulushini 2 foiz bandiga, aholi sonining aniqlanishi esa jon boshiga xarajatni 2,1 foizga o'zgartirdi. Ikkala holatda ham fiskal siyosatda hech qanday qaror qabul qilinmagan.

Ikkinchidan, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar dinamikasi qarama-qarshi bo'lishi mumkin. 2025–2026-yillarda xarajatlar mutlaq hajmda 13,5 trln so'mga o'sgan holda YaIMdagi ulushi 22,6 foizdan 20,4 foizgacha pasaydi. Faqat bittasini keltirish tahlilni bir tomonlama qiladi.

Uchinchidan, uch bazisning qo'llanish sohalari o'zaro almashinmaydi. YaIMga nisbatan ko'rsatkichlar makrofiskal barqarorlikni, jon boshiga ko'rsatkichlar ijtimoiy samaradorlikni, maydonga nisbatan ko'rsatkichlar esa infratuzilma zichligini o'lchaydi. Ularni bir-birining o'rniga qo'llash tahliliy xatoga olib keladi.

To'rtinchidan, hududiy tahlilda maxraj tanlovi taqsimot natijasini teskari yo'naltirishi mumkin. Bu O'zbekiston sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati birgalikda respublika hududining qariyb 62 foizini egallagan holda, aholining atigi 8 foizini o'zida jamlaydi.

Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'undir: IMF va Yevrostat metodologiyalari fiskal ko'rsatkichlarni taqdim etishda maxrajning versiyasi va sanasini majburiy ravishda ko'rsatishni talab qiladi.[7] Amaliyotda esa mahalliy tahliliy nashrlarda bu talab ko'pincha bajarilmaydi — nisbat keltiriladi, lekin uning maxraji qaysi manba va qaysi qayta ko'rikka asoslangani ko'rsatilmaydi.

Normallashtirish fiskal ko'rsatkichlarni qiyoslanadigan holatga keltiruvchi asosiy vosita bo'lib, uning natijasi maxraj tanloviga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot O'zbekiston ma'lumotlari misolida bir xil mutlaq ko'rsatkichning to'rt xil nisbiy qiymat berishini, maxrajning qayta ko'rilishi esa fiskal qaror qabul qilinmagan holda ham ko'rsatkichni 2 foizgacha o'zgartirishini ko'rsatdi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchi, rasmiy nashrlarda normallashtirilgan har bir ko'rsatkich yonida maxrajning manbasi, sanasi va versiyasi ko'rsatilishi lozim. Ikkinchi, aholini ro'yxatga olish natijalari qabul qilingandan so'ng oldingi yillarning jon boshiga ko'rsatkichlari retrospektiv qayta hisoblanishi va uzluksiz dinamik qator shakllantirilishi zarur. Uchinchi, hududiy byudjet tahlillarida jon boshiga va maydonga nisbatan ko'rsatkichlar birgalikda, ular o'rtasidagi tafovutni izohlagan holda keltirilishi maqsadga muvofiqdir. To'rtinchi, daromad ko'rsatkichlarini hudud maydoniga nisbatan normallashtirishdan tahliliy xulosa chiqarishdan tiyilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations, European Commission, IMF, OECD & World Bank. *System of National Accounts 2008*. New York, 2009. — https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/docs/sna2008.pdf
2. International Monetary Fund. *Government Finance Statistics Manual 2014*. Washington, D.C., 2014. — https://www.imf.org/external/pubs/ft/gfs/manual/2014/gfsfinal.pdf

[7] Eurostat, *Government finance statistics — methodology*; IMF GFSM 2014, 3-bob.

3. O'zbekiston Respublikasining «2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-1105, 25.12.2025. — https://lex.uz/uz/docs/-7949060
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *2026-yil uchun Davlat budjeti parametrlari va soliq siyosati*. Toshkent, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Demografik ko'rsatkichlar*, 2026. — https://stat.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Aholi va qishloq xo'jaligi ro'yxatga olishi: dastlabki natijalar*. Toshkent, 2026.
7. Eurostat. *Government finance statistics — methodology and background*. Luxembourg, 2024.
8. OECD. *Government at a Glance 2025*. Paris, 2025.
9. World Bank. *A Framework for Fiscal Performance Assessment*. Washington, D.C., 2023.
10. Australian Bureau of Statistics. *Australian System of National Accounts: Concepts, Sources and Methods*, Edition 8, Chapter 3.
11. United Nations Statistics Division. *Handbook on Measuring Quality of Employment and Living Standards*. New York, 2015.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, PF-158, 11.09.2023.